

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.Radjabova

Tarix fanini o'qitishda foydalaniladigan metodlar322

D.D.J.Nizomitdinov

XV – XVII asr birinchi yarmida nemis tarixshunosligida Amir Temur shaxsi tavsifi va uning harbiy yurushlari talqini325

Қ.А.Пулатов

Борьба с полигамией, гендерным равенством и секуляристической сущностью в социальных взглядах джадидов: научный анализ329

ADABIYOTSHUNOSLIK

R.A.Ortiqov

Ingliz bolalar adabiyotidagi sarguzasht-fantastik asarlar poetikasiga doir336

I.M.Jo'rayev

Zahiriddin Muhammad Bobur merosida xotin-qizlar obrazining tarixiy talqini341

O.Z.Dadajonov

Maqsud Shayxzodaning "Mirzo ulug'bek" va Bertold Brextning "Galiley hayoti" dramalarida olimlik motivi350

S.A.Olimjonov

Erix Mariya Remark va Ulug'bek Hamdam asarlarida badiiyat muammolari354

A.A.Qosimov

The role of mythonyms in Tolkien's works and their linguistic analysis360

A.A.Qosimov

Linguistic analysis of metaphors in Tolkien's novels366

Д.Ш.Ибрагимова

Подходы преподавания зарубежной литературы в иноязычном контексте370

M.N.Abdulimova

Lexical-structural features of mythonyms376

N.Qurbonov

Intensification and Deintensification Expressed Through Hyperbola in English Novels380

S.O'.Shermatova

Teenager image in "Treasure island" by Robert Louis Stevenson383

N.I.Toirova

XX asr adabiyotida ramziy obrazlarning poetik xususiyatlariga doir386

S.S.Usmanova

Psixologizm tarixiy asarda yetakchi obraz usuli sifatida390

A.O'.Abdullayev

Ramz belgining maxsus turi sifatida395

K.A.Toipvoldiyev

Реальный восток М.Ю.Лермонтова401

A.A.Касимов, Р.Н.Джагаспанян

Проблема народного героя в литературе как отражение национального самосознания406

Р.Н.Джагаспанян

Интерпретация образа Степана Разина как воплощение идеалов казачества в романе В.М.Шукшина "Я пришел дать вам волю"412

A.P.Косимов

Сатира – литературный инструмент В.Шукшина (на примере романа «Любавины»)422

O.A.Akbarov

Национальная идентичность и культурная память в современной прозе427

Э.Ф.Гиздулин

Историческое развитие постапокалиптических мотивов в художественной литературе431



UO'K: 821.111.09

**XX ASR ADABIYOTIDA RAMZIY OBRAZLARNING POETIK XUSUSIYATLARIGA
DOIR****О ПОЭТИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИКАХ СИМВОЛИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ В ЛИТЕРАТУРЕ
XX ВЕКА****ON THE POETICAL PROPERTIES OF SYMBOLIC IMAGES IN 20TH CENTURY
LITERATURE****Toirova Nargiza Isakovna** 

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

Annotatsiya

Maqolada jahon va o'zbek adabiyotida qo'llanilayotgan ramziy obrazlarning murakkab va xilma-xilligi, jumladan ularning manosi anglash uchun kitobxondan yetarli bilim va malaka talab qilinishi haqida gapiriladi. Asosan M.Bulgakovning "Usta va Margarita" romani, Ernest Xemingueyning "Kilimanjaro qorlari", "Yomg'irda qolgan mushuk" hikoyalari, A.Kamyuning "Vabo" romani, Omon Muxtorning "Afrotun" asari, N.Eshonqulning "Tobud" hikoyasi, Xurshid Do'stmuhammadning "Jajman" va "Ibn Mug'anniy" hikoyalardagi ramzlarning ma'nosi va ularni yozuvchilar ijodidagi tutgan o'rni haqida fikr yuritiladi.

Аннотация

В статье рассматривается вопрос использования символов в мировой и узбекской литературе и их значение в произведениях авторов и проблема трактовки читателем. В особенности в произведениях М.Булгакова «Мастер и Маргарита», Эрнеста Хемингуэя «Снега Килиманжаро» и «Кошка под дождем», А.Камю «Чума», Омона Мухтара «Платон», Н.Эшонкула «Гроб», Хуршида Дустмухаммада «Жажман» и «Ибн Муганний».

Abstract

Article considers the issue of using symbols in world and uzbek literature and their meaning and interpretation by readers in works of authors such as M. Bulgakov "Master and Margaret", Ernest Hemingway "The snow of Kilimanjaro" and "Cat in the rain", A. Camus "Le Peste", Omon Muhtar "Plato", N. Eshonqul "Coffin", Hurshid Dustmuhammad "Jajman" and "Ibn Muganniy".

Kalit so'zlar: ramziy obraz, simvol, XX asr adabiyoti, poetik xususiyatlar, ramziy ma'no, ramziylik.

Ключевые слова: символический образ, символ, литература XX века, поэтические особенности, символическое значение, символизм.

Key words: symbolic image, symbol, the XXth age literature, poetic peculiarities, symbolic meaning, symbolism.

KIRISH

Biz ramzni obrazli ifodaning bir ko'rinishi sifatida badiiy nutqda hayotiy voqea, tushuncha va narsalarni ifodalash uchun shartli ravishda ko'chma ma'noda ishlatiladigan so'z yoki so'zlar birikmasi deb bilamiz [1.279]. Lekin bugungi kunga kelib, ramz tor ma'nodagi so'z va so'zlar birikmasining ko'chma ma'noda qo'llanishidan chuqur falsafiy mazmunni anglatuvchi matn darajasiga ko'tarildi. Hozirda ramzni inson va jamiyatning abadiy va global muammolarini qamrab oluvchi hamda shartli ravishda ko'chma ma'nolarga tayanuvchi badiiy matn ko'rinishi deb hisoblash mumkin.

Zamonaviy adabiyotda qo'llanilayotgan ramziy obrazlar nafaqat boy va xilma-xil, balki sirli hamda murakkab ekanligi bilan diqqatga sazovordir. Ana shu ramzlar ortida yashiringan mazmunni to'la anglash, his etish uchun kitobxondan birmuncha tayyorgarlik, turli xil bilimlardan xabardor bo'lish talab etiladi. Shu ma'noda rus adibi M.Bulgakovning asarlari ham xarakterlidir.

M.Bulgakovning "Usta va Margarita" romani qahramoni Vollandning "Qo'lyozmalar yonmaydi" degan so'zlari chuqur ramziylik bo'lib, haqiqiy ijod manguликка daxldor ekanligiga ishora sanaladi.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Umuman, romanda daxshatli reallik kasb etuvchi, hamda afsonaviy ko'plab ramzlarni uchratish mumkin. Romanda iblis Voland va uning do'zax mulozimlari, Usta va boshqalar zamonaviy-tarixiy planda mifologik – ramziylik bilan uyg'unlashtirib beriladi, shu bilan birga real hayot nafasi aniq-ravshan his qilinadi [2.313-320].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODI

Ernest Xemingueyning ba'zi hikoyalarida jonivorlardan asosiy ramz sifatida foydalanilgan. Shu bilan birga, adib hikoyalaridagi jonivorlar bosh qahramonlar ruhiy holatining o'ziga xos belgilari bo'lib, u yoki bu xatti-harakatlarni anglashga yordam beradi.

Fikrimizni "Kilimanjaro qorlari" hikoyasida qo'llanilgan jonivor ramzlar (qoplon va sirtlon) va "Yomg'irda qolgan mushuk"dagi mushuk misolida asoslash mumkin. Jonivorlar yordamida muallif ikki toifa odamlar obrazini ramziy aks ettiradi. Qoplon faqat asar boshlanishida, epigrafdan namoyon bo'ladi, biroq bu manzara hikoyaning boshqa qismlari uchun juda muhim. "G'arbiy cho'qqining deyarli uchida qurib, muzlab qolgan qoplonning jasadi yotardi. Nima sababdan u bunday balandlikka ko'tarilganini hech kimga aytolmasdi" [3.531] (tarjima o'zimizniki – N.T.). Shu yerda o'quvchiga Kilimanjaro cho'qqisidan topilgan qoplon murdasi haqidagi afsona so'zlab beriladi. Balki qoplon "Xudoning uyi" nomi bilan ma'lum bo'lgan cho'qqini qidirgandir. Qoplon deganda o'quvchi ko'z o'ngida nozik harakat, tezlik, kuch, jasurlik va qadr-qimmat namoyon bo'ladi. Bu hayvon maqsad bilan, juda shiddatli va aniq harakat qiladi. Hikoyada qoplon mana shu sifatlarni ramziylashtiradi. Sirtlon esa Garridek o'laksa bilan oziqlanadi – huddi jismoniy o'limidan ancha ilgari ma'naviy mavh bo'lgan qahramon kabi. O'quvchi uning o'y-fikrlari orqali qoplonning sifatlari Garri bilan assotsiatsiyalashmasligini anglaydi. Garri har doim o'z iqtidoridan foydalanishga cho'chigan. U fikrlarini yozib qo'yishiga o'lim halaqit qilishini tushunsa ham, unga qarshi kurashmaydi. "Yalqovlik" unga va sirtlonga xos sifat ekanligi Kilimanjaroga, "Xudoning uyi"ga qilgan sayohati paytidagi o'y-fikrlaridan ma'lum bo'ladi. Tog' cho'qqisini topish uchun xavfli yo'lga chiqqan qoplondan farqli o'laroq, Garri cho'qqiga chiqish uchun vertolet yollaydi. Darhaqiqat, u o'z o'lasining atrofida aylanib, uning o'limini kutayotgan sirtlonni eslatadi. U xotini bilan uning boyligi evaziga kun kechirar, ayoliga bo'lgan sevgisini yolg'on deb atardi. Garri karavotda nogironga o'xshab yotar va xotini bir burda go'sht keltirishini kutardi. Lager, real dunyoning ko'zgusi bo'lib, unda Garri o'zidan chaqqonroq, omadliroq ovchilardan qolgan sarqit, qoldiqlarni terib yuradi. Hikoyada sirtlon qayerda paydo bo'lsa, Garrining o'limi bilan assotsiatsiya paydo bo'ladi. Garri o'limi bilan yuzma-yuz bo'lganda "...tuyqusdan paydo bo'lgan, aqldan ozdiruvchi qo'llansa hidli bo'shliq qayun misoli yelib o'tdi. Ajablanarlisi shunda ediki, bo'shliqning qirg'og'ida sirtlonning sharpasi sezildi" (tarjima o'zimizniki – N.T.) Bu o'lim Garrini o'z quchog'iga olgan chog'idagi ruhiy holati edi. Jismoniy o'lim bu jarayondagi oxirgi qadam edi, xolos. Bu ikki jonivor ichki konfliktlarning timsoli bo'lib, asar yakunida Garri xuddi sirtlon kabi o'lim topadi.

Xemingueyning e'tiborimizni qaratmoqchi bo'lgan keyingi asari "Yomg'irda qolgan mushuk"dir. Bu asarda jonivor-ramzlarning o'rnini naqadar katta ekanligini sarlavhadan ham ma'lum. "Yomg'irda qolgan mushuk" – bu amerikalik ayol ruhiy holatining ramzi. O'quvchi ilk bora mushukni yomg'ir yog'ayotgan paytda hiyobondagi skameyka ostida ko'radi, muallif uni "urg'ochi mushuk" (rus. ona jen.rod) sifatida tasvirlaydi, vaholanki ayol buni aniq bilmaydi. O'quvchida bu assotsiatsiya avtomatik, tabiiy ravishda paydo bo'ladi va mushuk hamda hikoyadagi yagona ayol obrazi, amerikalik ayol munosabatlarini kuzatib borish uchun xizmat qiladi. Mushukni yomg'irdan qutqarish uchun ketayotgan ayolga eri ham, xizmatkor ayol ham ho'l bo'lib ketishi mumkinligini aytadi. Biroq ayol uchun shalabbo bo'lishdan ko'ra mushukni olib kelish muhimroq edi. U yomg'irda qolib ketgan mushukday bo'lish qanday ekanligini yaxshi biladi. Ayol umidsizligining bosh sababchisi eri edi. Eri unga umuman befarq, shuning uchun ham ayoli o'z orzu-umidlari haqida gapira boshlaganda, jim bo'lishni talab qiladi.

"Ayol ko'zguni stol ustiga qo'ydi, deraza oldiga borib bog'ni kuzata boshladi. Qorong'i tusha boshladi.

Sochlarimni mahkam siqib bog'lashni va ular silliq bo'lishini va gardanimda katta tugundek bo'lishini va ularni ushlab ko'rish mumkin bo'lishini xohlayman, - dedi u. – Mushugim bo'lishini, u tizzamda o'tirishi va silaganimda xurrilashini xohlayman.

Mm, -dedi Jorj karavotdan.

Va o'z dasturxonimda ovqatlanishini, o'zimning pichoq va sanchqilarim bo'lishini va yana shamlar yonib turishini xohlayman. Yana bahor bo'lishini va ko'zgu oldida turib sochimni tarashni xohlayman, mushugim bo'lishini xohlayman, yana ko'ylagim bo'lishini xohlayman...

Jim bo'l. Kitob o'qib o'tir, - dedi Jorj. U yana o'qishda davom etdi" [4.83]. E'tibor berilsa, bu shunchaki zamonaviy ayolning inijliklari emas, balki haqiqiy ayollik mavqeidan uzoqlashgan va unga, ya'ni o'zligiga qaytishni chin dildan qumsayotgan ayolning talablaridir. Agar mushuk ayolning ramzi bo'lsa, unda ayol kimdandir ana shunday mehribonlik ko'rish istagini mujassamlashtiradi. U o'zini ayoldan ko'ra ko'proq sochlari kalta qirqilgan boladay his qiladi. U eri tomonidan unga nisbatan jismoniy va hissiy e'tiborsizlikdan azoblanadi. Oxir-oqibat ayolning barcha istaklarini eridan yaxshiroq anglagan mehmonxona xo'jayinining sa'y-harakati bilan ham adabiy, ham ramziy bo'lgan mushuk yomg'irdan olib keltiriladi. Bu bilan u ayolda erida bo'lmagan e'tiborni taqdim etadi.

Xeminguey jonivorlardan ramz sifatida foydalanib qahramonlarni boyitadi. Bunday usul o'quvchilarga qahramonlar ruhiy dunyosini tushunishlari uchun kalit vazifasini o'taydi. Ularsiz hikoya o'z jozibasini va aniqligini yo'qotganday bo'ladi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin (1947) paydo bo'lgan fransuz adibi A.Kamyu (1913-1960)ning "Vabo" romanidagi o'lat tasviri orqali fashizmning majoziy obrazi yaratilgan, degan fikr adabiyotshunoslikda muhrlanib qolgan. Adabiyotshunos Dilmurod Qur'onov Cho'lpon nasri poetikasini tadqid etar ekan, badiiy asar muayyan davr mahsuli bo'lgani holda ularni faqat davr bilan bog'labgina tushunish xato ekanligi haqida yozadi. Zero, "...chinakam san'atkor ijod onlarida voqelikdan uziladi, bu ilohiy damlarda uning uchun vaqt chegaralari mavjud emas – u o'tmish, hozir va kelajakni birlashtirgan katta VAQT hukmida yashaydi" [5.283]. Shunga ko'ra, Kamyu "Vabo"da nafaqat fashizmning majoziy obrazini, balki hech qachon to'la chekinmaydigan, vaqti-vaqti bilan bo'y ko'rsatib insonlarni esankiratib qo'yadigan sirli kuchni tasvirlaganligiga amin bo'lamiz. Bunday ofat loqaydlik, befarqlik avj olgan har qanday jamiyatda ro'y berishi mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ramziy timsollardan foydalanish zamonaviy o'zbek yozuvchilari ijodida ham muhim o'rin tutadi. Bu o'rinda Asqad Muxtorning "Chinor", Murod Muhammad Do'stning "Lolazor", Asqad Dilmurodning "Fano dashtidagi qush" asarlarini ta'kidlash lozim bo'ladi. Xususan, Omon Muxtorning "Aflotun" asari ham chuqur tagma'noga ega bo'lgan ramziy detal va obrazlarga boy. Bizning nazarimizda ushbu asarda yozuvchi tomonidan qo'llanilgan quduq detaliga falsafiy – tasavvufiy ma'no yuklatilgan. YA'ni quduq - dunyo ramzi. Yoki bo'lmam asardagi Suqrot obrazini olaylik. Ushbu obrazni tahlilimiz bo'yicha Komil inson ramzi deb qabul qildik.

Zamonaviy o'zbek adabiyotdagi o'ziga xos tasvir uslubiga ega bo'lgan adiblardan biri N.Eshonqul ham "Tobud" hikoyasida ramziy tagma'noga asoslangan timsolga murojaat qilganligini anglash mumkin. Shahardagi barcha uchun jumboq bo'layotgan o'lat sababi hikoya oxirida ma'lum bo'ladi: telba me'mordan olingan loyihadan bilinishicha, shahar tobut shaklida qurilgan ekan. Shaharning kelajagi inqiroz va zavol ekanligini oldindan bashorat qilish mumkin edi. Chunki tobutdan hech kim chiqib keta olmaydi.

Hikoya bilan tanishgach, N.Eshonqul tobut shaklida qurilgan makon timsolida Sho'rolar tuzumi, shahar bo'ylab kezib yuruvchi badbo'y hid orqali sho'rolar mafkurasini yaratgan, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

"Tobud" hikoyasi singari 90-yillarda o'zbek adabiyotida yaratilgan bir qator asarlarda mavhum bir jamiyat, tuzum, mafkuraning ramziy tasviriga duch kelamiz. Ulardagi qahramonlar ko'pincha notabiiy sharoitlarda, mavhum, sirli muhitda tasvirlanadilar. Mana shu absurd olamni aks ettirish ortida, asosan, sobiq Ittifoq yohud kommunistik tuzum davridagi insonlar va ularning ruhiy, ma'naviy olami nazarda tutilayotganini ilg'ab olish qiyin emas.

Shu ma'noda Xurshid Do'stmuhammadning "Jajman" va "Ibn Mug'anniy" hikoyalari ham xarakterlidir.

"Jajman"da neomifologik tasvir tamoyilidan unumli foydalanilgan. Vaqtning siklik modeli asosida bir necha ming yil avval yashagan payg'ambar Zardo'sht qariya qiyofasida – iymon, e'tiqod, donishmandlik ramzi sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Murakkab va ko'p ma'noli ramziy obrazlarga murojaat qilishni X.Do'stmuhammadning yana bir asari – "Ibn Mug'anniy"da ham kuzatish mumkin. Hikoyada insonning ruhiy ozodlikka erishish uchun qilgan isyoni aks ettirilgan. Asar boshdan-oyoq ramziy belgi va ishoralarga to'la ekanligi, teran falsafiy ruh bilan sug'orilganligi buni birdaniga tushunishga monelik qiladi. Hikoyada qo'llanilgan tashqi ramziy belgilar majoziy, ramziy asarlardagi singari ichki mazmun bilan dialektir aloqada emas. Shuning uchun ham asardagi asosiy tashqi ramziy belgi qor iyerogliflari singari izoh talab qiladi.

Hikoya boshlanishidanoq Ibn Mug'anniy hovlisi o'rtasida, to'shigacha qorga botgan, karaxt bir holatda tasvirlanadi. Mana shu sirli va mavhum vaziyatni yetkazish uchun bayonning boshidanoq oltmishga yaqin so'z va iborani jamlagan qo'shma gapning murakkab shakliga murojaat qilingan:

"Ibn Mug'anniy suv ostida uzoq turganidan nafasi qaytgan va po'kakdek qalqib suv betiga chiqqan odamdek entikib havo yutdi va yuz bergan hodisani ilkis idrok etolmay g'arq bo'lib ketmaslik maqsadida quloq otib qo'llarini ikki yoniga cho'zdi, tipirchilab oyoq qo'yarga joy izladi, topdi shekilli, ola-tasir harakatlari sekinlashdi, hamon harsillab – yutoqib nafas olayotgan bo'lsa-da, "qayerga keb qoldim?!" degan tahlkada tevarak – atrofga alangladi. To'rt tomon oppoq qor, pastu tepaliklar, sanoqsiz do'ngliklar – qor bosgan, cheki chegarasi yo'q qabristonga o'xshaydi. Ibn Mug'anniy yuragi bezovta tepayotganini sezdi – aql bovar qilmas bu shiddat qaydan kelganiga uning o'zi hayronu lol edi" [6.221-222]. Ma'lumki, qor adabiyotda, asosan, oqlik, yorug'lik, soflik, yaxshi niyat belgisi sifatida namoyon bo'lib kelgan. "Ibn Mug'anniy"da esa qor o'ziga xos – original ramziy obraz sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA

Asar so'ngida, insonlar ongi, shuurini, ruhiy va ma'naviy olamini egallab olgan tuzum (qor) tanazzulga yuz tutdi. Ushbu jamiyatda yashagan kishilar ota-bobolaridan qolgan ma'naviy merosiga, ya'ni o'zligiga qayta murojaat qila boshlaydilar. Bu esa har millatning millat bo'lib qolishi uchun juda muhimdir. Bizning nazarimizda, hikoyada foydalanilgan qor ramzidan kelib chiqadigan asosiy xulosa mana shu.

Demak, insoniyat tamaddunining ilk bosqichidanoq ramz va ramziylik hayot haqidagi tasavvurlarning ajralmas qismiga aylandi. G'orlardan topilgan davrdagi qadimgi suratlardan boshlab hayotdagi har bir holat, predmet, belgi qat'iy bir tizimga solingan, texnika tili bilan aytganda, kodlangan davrni boshdan kechirdi. Lekin shunga qaramay ramz badiiy adabiyot uchun, insonning, uning murakkab ichki dunyosini, olam bilan aloqasini tasvirlash uchun muhim vosita bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

XX asr adabiyoti muayyan badiiy-estetik maqsadda so'zni ko'chma ma'nosida qo'llash san'ati hisoblangan ko'chimning majoz, ramz singari ko'rinishlari badiiy matnda tasviriylik va ifodaviylikni kuchaytirish vositasi sifatida keng qo'llanilgan. Shu bilan birga, yozuvchining assotsiativ fikrlashi mahsuli bo'lgan ramziy obrazlar asarning g'oyaviy-estetik ta'sirini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha – o'zbekcha izohli lug'ati. T., O'qituvchi, 1979. B.: 279.
- 2.Sit.Po: I-V.Gyote, izb.sochin. Po yestvestvoznaniyu, perev. I komm. I.I.Kanayeva, red. Akad. YE.N.Pavlovskogo. Izd-vo. AN SSSR, 1957. Str. 313-320.
- 3.Xeminguey E. Fiyesta M., Xud. Lit-ra, 1988, Str. 531.
- 4.E.Xeminguey. Yomg'irda qolgan mushuk. // XX asr G'arb adabiyotidan amaliy mashg'ulotlar. T., Akademnashr, 2011. B.: 83.
- 5.Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. T., Sharq, 2004. B.: 283.
6. Do'stmuhammad X. Jajman. T., Sharq, 1995. B.: 221-222.